



ACADEMIC SPECTRUM

3-Son (2026-yil, Mart)

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

BUXORO - 2026



ACADEMIC SPECTRUM

**Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal**

№3-Son (2026-yil, Mart)

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda
№1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**

BOSH MUHARRIR:

Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor
Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va
texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim
instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Eko Sri Margianti - Gunadarma universtiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor (Indoneziya).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni
takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri).

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro
davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro
davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Ismatova Dilafuz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Muxlisov Sodikjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrasini dotsenti).

Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Mas‘ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahan Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti
Psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi



EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Kuleshov Valery Vladimirovich — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Andrienko Elena Vasilyevna — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Romm Tatyana Aleksandrovna — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Eko Sri Margianti — Rector of Gunadarma University, Doctor of Economic Sciences, Professor (Indonesia).

Zarirov Lochin Rustamovich — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improving Educational and Methodological Activities).

Nazarov Akmal Mardonovich — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Psychology, Bukhara State University.

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

Ganjiyev Feruz Furqatovich — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

Mukhlisov Sodiqjon Saidjonovich — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Department of Information Systems and Digital Technologies, Bukhara State University.

Tilavov Mukhtor Hasan o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли
доктор философии по психологии (PhD), доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андриенко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационного и технологического образования, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарного и социального образования, г. Новосибирск, Россия).

Еко Sri Margianti — ректор Университета Гунадарма, доктор экономических наук, профессор (Индонезия).

Зариров Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления по совершенствованию учебно-методической деятельности).

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор, заведующий кафедрой «Психология» Бухарского государственного университета.

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Ганджиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры психологии Бухарского государственного университета

Исматова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент кафедры «Информационные системы и цифровые технологии» Бухарского государственного университета.

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Ro‘ziqulova Umida Akbar qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Turobova Ziyoda Shuhrat qizi

MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI HAMDA OTA- ONALAR MUNOSABATI ORASIDAGI NIZO VA YECHIMLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari hamda ota-onalar o’rtasida yuzaga keladigan nizolarning psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta’lim jarayonida tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Biroq ayrim hollarda tarbiya usullari, bolaga qo’yiladigan talablar, kommunikatsiya yetishmovchiligi yoki o‘zaro tushunmovchiliklar sababli nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, ota-ona, nizolar, pedagogik hamkorlik, kommunikatsiya, nizolarni hal etish, psixologik muhit, tarbiya jarayoni.

КОНФЛИКТЫ МЕЖДУ ВОСПИТАТЕЛЯМИ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И РОДИТЕЛЯМИ, А ТАКЖЕ ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ.

Аннотация. В данной статье анализируются психологические и педагогические аспекты конфликтов, возникающих между воспитателями дошкольных образовательных организаций и родителями. В процессе дошкольного образования сотрудничество воспитателя и родителей является важным фактором всестороннего развития ребёнка. Однако в некоторых случаях из-за различий в методах воспитания, требованиях, предъявляемых к ребёнку, недостатка коммуникации или взаимного непонимания могут возникать конфликтные ситуации.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитатель, родители, конфликт, педагогическое сотрудничество, коммуникация, разрешение конфликтов, психологическая среда, воспитательный процесс.

CONFLICTS BETWEEN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION TEACHERS AND PARENTS AND WAYS TO RESOLVE THEM.

Abstract. This article analyzes the psychological and pedagogical aspects of conflicts that arise between preschool educational institution teachers and parents. In the process of preschool education, cooperation between teachers and parents is considered an important factor in the comprehensive development of a child. However, in some cases, conflict situations may arise due to differences in educational approaches, expectations placed on the child, lack of communication, or mutual misunderstanding.

Key words: preschool education, teacher, parents, conflict, pedagogical cooperation, communication, conflict resolution, psychological environment, upbringing process.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda maktabgacha ta’lim tizimi inson kapitalini shakllantirishning eng muhim bosqichlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, insonning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishining asosiy poydevori aynan 3–7 yosh davrida shakllanadi. Shu sababli dunyoning ko‘plab davlatlarida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, bolalar uchun sifatli tarbiya va ta’lim muhitini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari va ota-onalar o’rtasidagi samarali hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bola rivojlanishida oila va ta’lim muassasasi o‘zaro bog‘liq ijtimoiy institutlar bo‘lib, ular o’rtasidagi hamkorlik darajasi tarbiya va ta’lim samaradorligini bevosita belgilaydi.

Xalqaro pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ham oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishining muhim sharti sifatida baholanadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ota-onalar ta'lim jarayonida faol ishtirok etgan bolalarda ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori bo'ladi, kommunikativ ko'nikmalar tezroq shakllanadi hamda ularning ta'limga bo'lgan motivatsiyasi kuchliroq bo'ladi. Shuningdek, bunday bolalarda emotsional barqarorlik yuqori bo'lishi ham kuzatiladi. Shu bilan birga, oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi aloqalarning sustligi yoki ular o'rtasida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar bolaning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda malakali pedagog kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Natijada mamlakatda maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni sezilarli darajada ortib, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu jarayon esa tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikning yanada muhim bo'lishiga olib kelmoqda. Chunki ta'lim jarayonining samaradorligi nafaqat pedagoglarning kasbiy mahoratiga, balki ota-onalar bilan olib boriladigan hamkorlik darajasiga ham bog'liqdir.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasida turli sabablarga ko'ra nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday nizolar ko'pincha tarbiya usullaridagi farqlar, bolaga qo'yiladigan talablarning turlicha talqin qilinishi, pedagogik jarayon haqida yetarli ma'lumot berilmasligi yoki kommunikatsiya yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'ladi. Ayrim hollarda ota-onalar bolalar rivojlanishi yoki tarbiyaviy jarayon bilan bog'liq masalalarda tarbiyachilarning faoliyatini to'liq tushunmasligi yoki noto'g'ri talqin qilishi ham nizolarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, tarbiyachilarning ham ota-onalar bilan muloqot qilishda yetarli kommunikativ va konfliktologik kompetensiyaga ega bo'lmasligi nizoli vaziyatlarning kuchayishiga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari hamda ota-onalar o'rtasidagi nizolarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularning kelib chiqish omillarini aniqlash va samarali yechimlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur masalani chuqur tahlil qilish maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik hamkorlikni rivojlantirish, sog'lom psixologik muhitni shakllantirish hamda bolalarning barkamol shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili: Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar, ularning hamkorligi hamda ushbu jarayonda yuzaga keladigan nizolar muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan masalalardan biridir. Mazkur muammoni o'rganishda ko'plab rus va xorijiy olimlar o'z ilmiy qarashlari bilan muhim nazariy va amaliy asos yaratganlar. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlik bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi hamda bu jarayonda yuzaga keladigan ziddiyatlarni ilmiy asosda o'rganish muhim pedagogik vazifa sifatida qaraladi.

Shuningdek, xalqaro ilmiy tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim tizimida oila va ta'lim muassasasi hamkorligining turli modellarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilgan. Masalan, AQShda olib borilgan Head Start dasturi doirasidagi tadqiqotlar ota-onalarning ta'lim jarayonida faol ishtiroki bolalarning o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida ota-onalar ishtirokini oshirish ta'lim samaradorligini yaxshilashning muhim sharti sifatida e'tirof etilgan.

Xorijiy olimlardan yana biri Rollande Deslandes bo'lib, u oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalarini chuqur o'rganib, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki bolalarning akademik muvaffaqiyati va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ota-onalar bilan samarali muloqot o'rnatish pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, bu jarayonda pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasi alohida ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tizimida ota-onalar va pedagoglar hamkorligini rivojlantirish masalasi tarixiy jihatdan ham o'rganilgan. Masalan, amerikalik pedagog Katharine Whiteside Taylor tomonidan tashkil etilgan ota-onalar kooperativ maktabgacha ta'lim modeli ota-onalarning ta'lim

jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu model keyinchalik ko‘plab davlatlarda qo‘llanila boshlagan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ota-onalar ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaraladi va pedagoglar bilan hamkorlikda bolalarning rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim muassasasi va oila o‘rtasidagi hamkorlik faqatgina formal muloqot bilan cheklanib qolmasligi kerak. Aksincha, u o‘zaro hurmat, ishonch va tenglik tamoyillari asosida qurilishi zarur. Chunki ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi samarali hamkorlik bolalarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish, ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda sog‘lom psixologik muhit yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, rus va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar bolalar rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Ushbu munosabatlarning samarali tashkil etilishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilsa, aksincha, ular o‘rtasida yuzaga keladigan nizolar pedagogik jarayon samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar darajasini aniqlash maqsadida V.V. Boykoning “Kommunikativ bag‘rikenglik darajasini aniqlash” metodikasidan foydalanildi. Ushbu metodika shaxslararo muloqot jarayonida boshqa insonlarning fikri, xulqi va hissiyotlariga nisbatan tolerantlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur metodika ham O‘zbekiston psixologiya amaliyotida keng qo‘llaniladigan ilmiy diagnostik vositalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan metodologik tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari hamda ota-onalar o‘rtasidagi nizolar ko‘pincha shaxslararo muloqot darajasi va nizoli vaziyatlarda tanlanadigan xulq-atvor strategiyalari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida samarali kommunikatsiyani rivojlantirish, konfliktologik kompetensiyalarni shakllantirish hamda pedagogik hamkorlikni kuchaytirish mazkur muammoni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

K. Tomas metodikasi bo‘yicha nizoli vaziyatlarda xulq-atvor strategiyalarining taqsimoti (n=120)

Nizo strategiyasi	Respondentlar soni	Foiz (%)
Raqobat (konfrontatsiya)	21	17,5
Hamkorlik	32	26,7
Murosa (kompromiss)	29	24,2
Moslashish	23	19,2
Qochish	15	12,4
Jami	120	100

Jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning eng katta qismi (26,7 %) nizoli vaziyatlarda hamkorlik strategiyasini qo‘llashga moyil ekanligi aniqlandi. Bu esa tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida nizolarni konstruktiv yo‘l bilan hal qilishga intilish mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, murosa strategiyasi ham yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib (24,2 %), bu nizolarni o‘zaro kelishuv orqali hal qilish tendensiyasi mavjudligini bildiradi. Biroq ayrim respondentlar orasida raqobat (17,5 %) hamda moslashish (19,2 %) strategiyalarining ham uchrashi nizoli vaziyatlarda qarama-qarshi yondashuvlar ham mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida respondentlarning kommunikativ bag‘rikenglik darajasi o‘rganildi. Olingan natijalar SPSS dasturi yordamida tahlil qilinib, quyidagi jadvalda keltirildi.


2-jadval

V.V. Boyko metodikasi bo‘yicha kommunikativ bag‘rikenglik darajasining taqsimoti (n=120)

Bag‘rikenglik darajasi	Respondentlar soni	Foiz (%)
Yuqori	38	31,7

O‘rtacha	56	46,7
Past	26	21,6
Jami	120	100

Tarbiyachi va ota-onalar o‘rtasidagi nizolar strategiyalari va kommunikativ bag‘rikenglik darajasi



Yuqoridagi diagramma ikki metodika natijalarini (K. Tomas va V.V. Boyko) birgalikda taqqoslash asosida tuzildi. Diagrammada nizoli vaziyatlarda tanlanadigan strategiyalar hamda respondentlarning kommunikativ bag‘rikenglik darajalari foiz ko‘rsatkichlari orqali ifodalangan.

Diagramma natijalariga ko‘ra, maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari hamda ota-onalar o‘rtasidagi nizoli vaziyatlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan strategiya hamkorlik (26,7%) ekanligi aniqlangan. Bu holat respondentlarning muammolarni qarama-qarshilik orqali emas, balki o‘zaro muloqot va kelishuv orqali hal qilishga intilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, murosa strategiyasi (24,2%) ham yuqori ko‘rsatkichni tashkil etib, nizolarni o‘zaro manfaatlarni hisobga olgan holda hal qilishga moyillik mavjudligini tasdiqlaydi.

Biroq diagrammada raqobat (17,5%) va moslashish (19,2%) strategiyalarining ham mavjudligi ayrim holatlarda nizolar konstruktiv muloqot orqali emas, balki qarama-qarshi pozitsiyalar orqali hal qilinishini ko‘rsatadi. Eng past ko‘rsatkich qochish strategiyasi (12,4%) ga to‘g‘ri kelib, bu respondentlarning muammolardan butunlay chekinish usulini kamroq tanlashini bildiradi.

Kommunikativ bag‘rikenglik darajasiga oid natijalar esa respondentlarning 46,7% ida o‘rtacha daraja, 31,7% ida yuqori daraja, 21,6% ida esa past daraja kuzatilganini ko‘rsatdi. Bu esa tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasidagi muloqot imkoniyatlari yetarli darajada mavjud bo‘lsa-da, ayrim holatlarda o‘zaro tushunmovchilik va nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkinligini anglatadi.

Diagramma natijalarini kompleks tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari hamda ota-onalar o‘rtasidagi nizolar asosan kommunikativ madaniyat va bag‘rikenglik darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Respondentlarning aksariyati hamkorlik va murosa strategiyalarini tanlashi konstruktiv muloqot uchun ijobiy sharoit mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bag‘rikenglik darajasining ayrim respondentlarda pastligi nizolar kelib chiqishining muhim omillaridan biri bo‘lishi mumkin.

Shu sababli maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, konfliktologik treninglar tashkil etish hamda pedagogik hamkorlikni kuchaytirish nizoli vaziyatlarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari hamda ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida muhim ijtimoiy-pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta‘lim jarayonida oila va ta‘lim

muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, bolalarning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi hamda ta‘lim jarayonidagi faolligi shunchalik samarali kechadi. Shu bilan birga, pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi muloqot yetishmovchiligi, tarbiyaviy qarashlarning turlicha bo‘lishi, axborot almashinuvi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi kabi omillar nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan psixologik metodikalar hamda statistik tahlil natijalari tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasidagi nizolarning ko‘p hollarda shaxslararo muloqot xususiyatlari, kommunikativ bag‘rikenglik darajasi va nizoli vaziyatlarda tanlanadigan xulq-atvor strategiyalari bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Respondentlarning muayyan qismi nizoli vaziyatlarda hamkorlik va murosa strategiyalarini tanlashi konstruktiv muloqot uchun ijobiy imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi. Biroq ayrim respondentlarda raqobat yoki moslashish kabi strategiyalarning ustunligi nizoli vaziyatlarning murakkablashishiga olib kelishi mumkinligini ham ko‘rsatadi.

Shuningdek, kommunikativ bag‘rikenglik darajasi o‘rtacha yoki past bo‘lgan respondentlar mavjudligi tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida ayrim hollarda o‘zaro tushunmovchiliklar yuzaga kelish ehtimoli mavjudligini bildiradi. Bu esa pedagoglar va ota-onalar o‘rtasida samarali kommunikatsiya madaniyatini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki maktabgacha ta‘lim tizimida pedagogik jarayon faqat tarbiyachilar faoliyati bilan cheklanib qolmaydi, balki oila bilan uzviy hamkorlikda olib borilgandagina o‘zining ijobiy natijasini beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, nizoli vaziyatlarni konstruktiv tarzda hal etish hamda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish muhim ekanligini ko‘rsatdi. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarning kommunikativ va konfliktologik kompetensiyalarini rivojlantirish, ota-onalar bilan muntazam pedagogik suhbatlar va treninglar tashkil etish, o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan hamkorlik muhitini yaratish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari hamda ota-onalar o‘rtasidagi ijobiy va samarali hamkorlik bolalarning barkamol shaxs sifatida shakllanishi, ularning ijtimoiy va psixologik rivojlanishini ta‘minlash hamda ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 56 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PQ–3261-son qaror. – Toshkent, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi Qonun. – Toshkent, 2019.
5. Nishonova Z.T., Alimuhamedova A.Sh. Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 320 b.
6. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2010. – 384 b.
7. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva: Eksmo, 2019. – 512 s.
8. Elkonin D.B. Psixologiya igry. – Moskva: Vlados, 2007. – 360 s.
9. Bojovich L.I. Lichnost i ee formirovanie v detskom vozraste. – Moskva: Piter, 2008. – 400 s.

Jumayev Nodir Zayniddinovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'SMIRLARDA INTELLEKTUAL QOBILIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK JIHALTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smirlik davrida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik va psixologik jihatlari ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. O'smirlik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichi bo'lib, bu davrda bilish jarayonlari, tafakkur faoliyati, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlari jadal rivojlanadi. Tadqiqotda o'smirlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda ta'lim muhitining roli, pedagogik metodlar, psixologik omillar hamda shaxsning motivatsion xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada o'smirlarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda muammoli ta'lim, interfaol metodlar, ijodiy faoliyat, tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish va mustaqil ta'lim jarayonining ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning intellektual rivojlanishiga pedagogik muhit, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali hamkorlik, shuningdek psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'smirlarning bilish faoliyatini rag'batlantirish, ularda ijodiy fikrlashni rivojlantirish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish intellektual qobiliyatlarni takomillashtirishning muhim omillari hisoblanadi. Tadqiqot natijalari pedagogika va psixologiya fanlari doirasida o'smirlarning intellektual rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, intellektual qobiliyat, pedagogik yondashuv, psixologik omillar, tafakkur rivoji, bilish jarayonlari, ijodiy fikrlash, ta'lim muhiti.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У ПОДРОСТКОВ.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты совершенствования интеллектуальных способностей подростков. Подростковый возраст является важным этапом развития личности, в котором активно формируются познавательные процессы, логическое мышление, способность к анализу и самостоятельному решению проблем. В исследовании анализируется роль образовательной среды, педагогических методов и психологических факторов в развитии интеллектуального потенциала подростков. Особое внимание уделяется значению мотивации, познавательной активности и индивидуальных особенностей личности в процессе интеллектуального развития. В статье также раскрывается роль проблемного обучения, интерактивных методов, исследовательской деятельности и самостоятельного обучения в формировании интеллектуальных способностей учащихся. Результаты исследования показывают, что развитие интеллектуальных способностей подростков зависит от эффективности педагогического взаимодействия между учителем и учащимися, а также от психологической поддержки и стимулирования познавательной активности. Кроме того, формирование творческого мышления, развитие аналитических навыков и создание благоприятной образовательной среды являются важными условиями повышения интеллектуального потенциала подростков. Полученные результаты могут быть использованы в педагогической практике для совершенствования образовательного процесса и развития интеллектуальных возможностей подростков.

Ключевые слова: подростковый возраст, интеллектуальные способности, педагогические факторы, психологические особенности, когнитивное развитие, творческое мышление, образовательная среда.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF IMPROVING INTELLECTUAL ABILITIES IN ADOLESCENTS.

Abstract. *This article analyzes the pedagogical and psychological aspects of improving adolescents’ intellectual abilities from theoretical and practical perspectives. Adolescence is a crucial stage in personality development during which cognitive processes, logical thinking, independent reasoning, and problem-solving abilities develop intensively. The study examines the role of the educational environment, pedagogical methods, and psychological factors in enhancing adolescents’ intellectual potential. Particular attention is given to the importance of motivation, cognitive activity, and individual psychological characteristics in the development of intellectual abilities. The article also highlights the role of problem-based learning, interactive teaching methods, research-oriented learning, and independent study in fostering adolescents’ intellectual development. The findings indicate that the development of intellectual abilities among adolescents largely depends on effective interaction between teachers and students, the creation of a supportive educational environment, and the provision of psychological support. Furthermore, encouraging creative thinking, developing analytical skills, and stimulating cognitive curiosity are identified as key factors in improving adolescents’ intellectual potential. The results of this research can contribute to the improvement of educational practices and provide practical recommendations for enhancing adolescents’ intellectual development within the pedagogical and psychological framework of modern education.*

Key words: *adolescence, intellectual abilities, pedagogical approach, psychological factors, cognitive development, creative thinking, educational environment.*

Mavzuning dolzarbligi. O’smirlarda intellektual qobiliyatlarni takomillashtirishning pedagogik-psixologik jihatlarini o’rganish bugungi ta’lim tizimining eng muhim yo’nalishlaridan biridir. Chunki o’smirlik davri bilish jarayonlari, mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va qaror qabul qilish kabi intellektual sifatlar jadal shakllanadigan bosqich hisoblanadi. UNESCOning o’smirlar ta’limi va ko’nikmalarini rivojlantirishga oid materiallarida aynan o’smirlik davridagi o’zgarishlar keyingi ta’lim natijalari, malaka shakllanishi va ijtimoiy moslashuvga kuchli ta’sir ko’rsatishi qayd etiladi. Shu bois o’smirlar intellektual salohiyatini rivojlantirishni tasodifiy emas, balki pedagogik va psixologik jihatdan puxta tashkil etilgan jarayon sifatida ko’rish zarur.

Xalqaro miqyosda ham ta’lim sifati endi faqat faktlarni yod olish bilan emas, balki o’quvchining bilimni real hayotiy vaziyatlarda qo’llay olishi bilan baholanmoqda. OECDning PISA dasturi 15 yoshli o’quvchilarning o’qish, matematika va tabiiy fanlar bo’yicha bilimidan tashqari, murakkab muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va muloqot qilishga tayyorligini ham o’lchaydi. PISA 2022 natijalari ko’plab ta’lim tizimlarida o’quv yutuqlari pasayganini ko’rsatgan bo’lsa, ayrim mamlakatlar ta’lim sifati, tenglik va o’quvchilar farovonligini saqlab qola olgan. Bu esa intellektual qobiliyatlar o’z-o’zidan emas, balki samarali pedagogik muhit, mos metodlar va psixologik qo’llab-quvvatlash orqali shakllanishini tasdiqlaydi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi ijodiy va moslashuvchan fikrlashga bo’lgan talabning kuchaygani bilan ham belgilanadi. OECDning PISA 2022 Creative Thinking natijalarida ta’lim tizimlari o’quvchilarni yangi g’oya yaratish, mavjud g’oyani takomillashtirish va turli kontekstlarda nodatiy yechim topishga qanchalik tayyorlayotgani tahlil qilingan. Hisobotda eng yuqori natija ko’rsatgan tizimlar o’quvchilarda ijodiy fikrlashni muntazam rivojlantirishi, o’qituvchilarning esa bunday faoliyatga ijobiy munosabati muhimligi ko’rsatiladi. Demak, o’smirlarning intellektual qobiliyatlarini takomillashtirish faqat akademik o’zlashtirish masalasi emas, balki innovatsion fikrlash, ilmiy qiziqish va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirish masalasidir.

Respublikamizda ham ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan. O’zbekiston Respublikasining xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida umumta’lim maktablari tarmog’i, o’quvchilar soni va ta’lim sifatini oshirish zarurati aniq qayd etilgan; hujjatda 2019-yil 1-aprel holatiga ko’ra respublikada 9 691 ta umumta’lim maktabi va 5,8 million o’quvchi mavjudligi ko’rsatilgan. Bu ko’lamning o’ziyoq ta’lim mazmuni va metodikasini takomillashtirish, ayniqsa o’smirlar bilan ishlashda intellektual rivojlanishga yo’naltirilgan pedagogik-psixologik mexanizmlarni kuchaytirish naqadar muhim ekanini ko’rsatadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham ta‘lim va ilm-fan yo‘nalishlari ustuvor vazifa sifatida belgilanib, zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish, ta‘lim sifati va inson kapitalini kuchaytirish asosiy maqsadlardan biri sifatida ilgari surilgan. Shu bilan birga, rasmiy manbalarda PISA va PIRLS kabi xalqaro baholashlarda ishtirok etish ta‘lim siyosati samaradorligini baholash, o‘quvchilar yutuqlarini yaxshilash va ongli qarorlar qabul qilish vositasi sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa o‘smirlarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish endi faqat nazariy pedagogik masala emas, balki ta‘lim natijasini xalqaro mezonlarda ko‘ra olish bilan bog‘liq amaliy zaruratga aylanganini anglatadi.

Bugungi kunda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi tabiiy fanlar, raqamli savodxonlik, ijodiy tafakkur va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar bilan uzviy bog‘liq holda qaralmoqda. UNESCO sifatli ta‘lim va foundational learning doirasida asosiy ko‘nikmalar keyingi barcha o‘qish bosqichlari uchun tayanch bo‘lishini ta‘kidlaydi. Shundan kelib chiqib, o‘smirlarning intellektual rivoji uchun pedagogik ta‘sir vositalari bilan bir qatorda psixologik omillar - motivatsiya, o‘ziga ishonch, qiziqish, hissiy barqarorlik, refleksiya va muloqot muhitini ham chuqur o‘rganish talab etiladi. Aks holda, ta‘lim jarayoni bilim uzatish bilan cheklanib qoladi, lekin fikrlash madaniyati va intellektual mustaqillik yetarlicha shakllanmaydi.

Shu jihatdan, “O‘smirlarda intellektual qobiliyatlarni takomillashtirishning pedagogik-psixologik jihatlari” mavzusi dolzarbdir, chunki u bir vaqtning o‘zida uch muhim ehtiyojga javob beradi: birinchidan, o‘smir shaxsining yosh xususiyatlariga mos rivojlantiruvchi ta‘limni tashkil etish zaruratiga; ikkinchidan, respublika ta‘lim tizimini xalqaro baholash mezonlari va zamonaviy kompetensiyalar talablari bilan uyg‘unlashtirish ehtiyojiga; uchinchidan, kelajakda intellektual salohiyati yuqori, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va raqobatbardosh avlodni voyaga yetkazish vazifasiga. Shuning uchun ushbu mavzuni ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq etish nazariy ham, amaliy ham ahamiyatga ega.

Kirish. XXI asrda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti inson kapitalining sifatiga bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda. Shuning uchun zamonaviy ta‘lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega va muammolarni tahlil qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, o‘smirlik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda bilish jarayonlari, mantiqiy tafakkur, xotira, diqqat va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlari faol rivojlanadi. Shu sababli o‘smirlarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davri (taxminan 12–16 yosh) inson tafakkurining murakkab shakllari shakllanadigan davr hisoblanadi. Mashhur psixolog J. Piaget nazariyasiga ko‘ra, aynan shu davrda abstrakt tafakkur, mantiqiy xulosalar chiqarish va nazariy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. L.S. Vygotskiy esa o‘smirlik davrida bilish jarayonlari rivojlanishi ijtimoiy muhit, ta‘lim jarayoni va pedagogik ta‘sir bilan uzviy bog‘liq ekanini ta‘kidlaydi. Bu esa o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlari tabiiy rivojlanish bilan bir qatorda, maqsadli pedagogik va psixologik ta‘sir orqali ham shakllanishini ko‘rsatadi.

Xalqaro miqyosda ta‘lim sifati va o‘quvchilarning bilim darajasini baholash uchun turli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, OECD tomonidan tashkil etiladigan PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro tadqiqotlari o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlari bilan bir qatorda ularning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va bilimlarni real hayotda qo‘llay olish qobiliyatlarini ham baholaydi. PISA tadqiqotlarining 2022-yil natijalariga ko‘ra, zamonaviy ta‘lim tizimlarida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muammoli ta‘lim, tadqiqotga asoslangan o‘qitish va interfaol metodlardan foydalanish muhim omil ekanligi ta‘kidlangan. Bu esa o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi faqat milliy ta‘lim tizimi uchun emas, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb ekanini ko‘rsatadi.

UNESCO ma‘lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyo bo‘yicha ta‘lim tizimida 1,5 milliarddan ortiq o‘quvchi ta‘lim olmoqda va ularning katta qismi o‘smirlik yoshida bo‘lgan yoshlar hisoblanadi.

Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish orqali ularni global jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. UNESCO tomonidan ilgari surilgan “barqaror rivojlanish uchun ta’lim” konsepsiyasida ham o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yondashuv kabi intellektual kompetensiyalarni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va yosh avlodning intellektual salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasi, shuningdek ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarida yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini oshirish hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bugungi kunda respublikamizda minglab umumta’lim maktablari faoliyat yuritib, millionlab o‘quvchilar ta’lim olmoqda. Bu esa o‘smirlarning intellektual rivojlanishini ta’minlash uchun pedagogik va psixologik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘smirlarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni ko‘p jihatdan pedagogik muhit, ta’lim metodlari, psixologik qo‘llab-quvvatlash hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlariga bog‘liqdir. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, interfaol metodlar, tadqiqot faoliyati va kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Shu bilan birga, psixologik jihatdan motivatsiya, qiziqish, o‘ziga ishonch va ijtimoiy muhit o‘smirlarning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu nuqtai nazardan, o‘smirlarda intellektual qobiliyatlarni takomillashtirishning pedagogik-psixologik jihatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish zamonaviy pedagogika va psixologiya fanining muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot o‘smirlarning intellektual rivojlanishiga ta’sir etuvchi pedagogik va psixologik omillarni aniqlash, ta’lim jarayonida samarali metod va yondashuvlarni ishlab chiqish hamda o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘smirlarda intellektual qobiliyatlarni takomillashtirishning pedagogik-psixologik jihatlariga doir ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur muammo psixologiya, pedagogika va didaktikaning kesishgan nuqtasida shakllangan bo‘lib, uning nazariy ildizlari klassik rivojlanish psixologiyasi hamda zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim yondashuvlariga borib taqaladi. Xorijiy ilmiy maktab vakillaridan J. Piaget o‘smirlik davrini abstrakt va nazariy fikrlash faol shakllanadigan bosqich sifatida tavsiflaydi: Britannica ma’lumotiga ko‘ra, formal-operatsion bosqich odatda 11–12 yoshdan boshlanib, gipotetik fikrlash, ehtimoliy yechimlarni solishtirish va mavhum tushunchalar bilan ishlash imkonini beradi. Bu qarash o‘smir intellektining rivojlanishini biologik yetilishning oddiy natijasi emas, balki murakkab kognitiv tuzilmalar shakllanishi sifatida tushuntirishga asos bo‘ladi. Piagetning ushbu nazariyasi pedagogik adabiyotlarda o‘smirlar bilan ishlashda muammoli topshiriqlar, mantiqiy tahlil, taqqoslash, tasniflash va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan metodlarning zarurligini asoslashda keng qo‘llanadi.

Rus psixologik maktabida esa L. S. Vygotskiy qarashlari ushbu mavzuning metodologik poydevorini yanada chuqurlashtiradi. Britannica Vygotskiyni sovet psixologiyasining yirik namoyandasi sifatida qayd etadi, uning ta’lim va rivojlanish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik haqidagi g‘oyalari esa keyingi pedagogik nazariyalarga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. “Pedagogik psixologiya”ga oid bibliografik va tavsifiy manbalarda Vygotskiy bolalarda tafakkur, diqqat, emotsiya va individual xususiyatlarni ta’lim jarayonida hisobga olish zarurligini ta’kidlagani ko‘rsatiladi. Shu nuqtai nazardan, o‘smirlar intellektual qobiliyatlarini takomillashtirish faqat bilim hajmini oshirish emas, balki ta’limni shaxsiy rivojlanish zonasi, ijtimoiy muloqot va maqsadli pedagogik yordam bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Vygotskiy izdoshlari bo‘lgan D. B. Elkonin va V. V. Davydov rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasida o‘quv faoliyatini shunday tashkil etish kerakligini ilgari suradiki, bunda o‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki tushunchani faol ravishda egallovchi

subyektga aylanadi; Davydovning rivojlantiruvchi ta'lim haqidagi monografiyasi ham aynan o'quv faoliyati orqali tafakkurni rivojlantirish g'oyasini markazga qo'yadi. Bu qarashlar o'smirlarning intellektual salohiyatini oshirishda muammoli ta'lim, refleksiya, tahliliy fikrlash va mazmunli umumlashtirishning ahamiyatini asoslaydi.

Xorijiy pedagogik tafakkurda J. Dyui, keyinchalik konstruktivistik yondashuv tarafdorlari tomonidan rivojlantirilgan faoliyatga asoslangan ta'lim konsepsiyasi ham o'smir intellektini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. UNESCOning konstruktivizm va kognitiv rivojlanishga oid materiallarida ta'lim tayyor “haqiqat”larni uzatishdan ko'ra, o'quvchini o'ylashga, savol qo'yishga va o'z tajribasi asosida ma'no qurishga yo'naltirishi kerakligi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv o'smirlik davridagi intellektual faollikni oshirish uchun ayniqsa mosdir, chunki bu yoshda shaxs mustaqillikka, fikrini asoslashga va o'z pozitsiyasini himoya qilishga kuchli ehtiyoj sezadi. Shuning uchun xorijiy adabiyotlarda intellektual qobiliyatlar ko'pincha faqat IQ yoki akademik natija bilan cheklanmay, balki tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativ tahlil, muammoli vaziyatlarda yo'l topa bilish va yangi g'oya ishlab chiqish qobiliyati bilan birga talqin qilinadi. UNESCO va OECD manbalari ham bugungi ta'limda aynan shunday ko'p komponentli intellekt tushunchasi ustuvor bo'lib borayotganini ko'rsatadi.

Zamonaviy xalqaro tadqiqotlarda o'smirlarning intellektual qobiliyatlarini takomillashtirish masalasi ta'lim natijalarining funksional va amaliy ko'rinishlari bilan bog'liq holda o'rganilmoqda. OECDning PISA 2022 materiallarida 15 yoshli o'quvchilarning nafaqat akademik bilimlari, balki turli kontekstlarda g'oya yaratish, g'oyani takomillashtirish va ilmiy hamda ijtimoiy muammolarni hal qilishga tayyorligi tahlil qilinadi. Creative Thinking bo'yicha hisobotda o'quvchilar ijodiy fikrlashi yozma ifoda, vizual ifoda, ijtimoiy muammolarni hal qilish va ilmiy muammolarni hal qilish kabi yo'nalishlar orqali baholanishi ko'rsatilgan. Bu yondashuv o'smir intellektini faqat reproduktiv xotira mahsuli emas, balki yangi vaziyatga moslashuvchi, g'oya ishlab chiquvchi va uni takomillashtira oluvchi tizim sifatida talqin etadi. Adabiyotlarda bunday ko'rsatkichlarga erishish uchun ta'lim muhitida xavfsiz fikr almashuv, o'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi pozitsiyasi, ochiq savollar, loyiha ishlari va interfaol topshiriqlar muhim omil ekani qayta-qayta ta'kidlanadi. Demak, xalqaro manbalar o'smir intellektini rivojlantirish masalasini didaktik texnologiyalar, emotsional iqlim va motivatsion omillar bilan kompleks holda ko'radi.

